



**Toshkent shahar statistika boshqarmasida korrupsiyaga qarshi kurashish  
mavzusida bo'lib o'tgan yig'ilish**

**BAYONI № 5**

2023- yil 10-may

Toshkent sh.

- Yig'ilish raisi:** - Sh.Norkulov – Boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari
- Qatnashganlar:** - S.Annazarov – Boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
- M.Usmonov-boshqarma yurist konsulti  
Boshqarma tarmoq bo'limlari va tuman statistika bo'limlari xodimlari

**KUN TARTIBI:**

1.O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2023-yil 11-martdagi "Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 54-son buyrug'i bo'yicha.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son Qarorining mazmun mohiyati

3.O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirining 31.08.2022 yil 3383-sonli qarorining mazmun mohiyati

*(Sh.Norkulov, S.Annazarov, Sh.Shaagzamova, M.Usmonov, B.Shakarov, Sh.Norkulov)*

Yig'ilishda Toshkent shahar statistika boshqarmasining birinchi o'rinbosari Sh.Norkulov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2023-yil 11-martdagi "Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 54-son buyrug'i yuzasidan va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son Qarori yuzasidan va

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirining 31.08.2022 yil 3383-sonli qarori mazmun-mohiyatini boshqarma tarmoq bo'limlari va tuman statistika bo'limlari xodimlariga qisqacha tushunchalar berib o'tdi.

Yig'ilishda so'zga chiqqan Sh.Norkulovning ta'kidlashicha: "Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, nizomga ko'ra davlat fuqarolik xizmatchisi O'zbekistondan tashqaridagi xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar, O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlarda sovg'a olishi mumkin. O'zbekistondagi boshqa xizmat safarlarida sovg'a olish mumkin emas.

Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari rahbarlari, xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odoq-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shartligi yuzasidan ogohlantirildi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi oladigan sovg'a quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- milliy qonunchilikda taqiqlanmagan ashyolar bo'lishi;
- sovg'a xalqaro va boshqa rasmiy tadbirda ixtiyoriy berilgan bo'lishi;
- sovg'a ochiq va oshkora qabul qilinishi;
- davlat organining obro'siga putur yetkazmasligi;
- manfaatlar to'qnashuvi yoki korrupsiyaviy omilni keltirib chiqarmasligi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a quyidagi talablarga javob berishi lozim:

Shuningdek, yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son Qarori mazmun-mohiyati yuzasidan tushunchalar berib o'tildi.

Jumladan, mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini takomillashtirish doirasida ularga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimi izchil joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, Yangi O'zbekiston sharoitida korrupsiyaviy omillarni aniqlash, baholash va bartaraf etish jarayonida tegishli sohalarni raqamlashtirish va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishga e'tiborni yanada kuchaytirish zarurati vujudga kelmoqda.

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish yuzasidan davlat organlari tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, shuningdek,

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq:

1.2022-yil 1-sentabrdan boshlab, quyidagilarni nazarda tutuvchi "E-Antikorrupsiya" loyihasi to'liq ishga tushirilishi ta'kidlangan:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalar va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarning (keyingi o'rinlarda — davlat tashkilotlari) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari bo'yicha ushbu xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari tizimli ravishda ko'rish maqsadida "Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri"ni shakllantirish va yuritish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, inson omilini qisqartirish va tegishli tartib-taomillar va funksiyalarni raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish orqali bartaraf etish.

Loyiha "E-Anticor.uz" elektron platformasida amalga oshiriladi;

Reyestri shakllantirish va yuritish Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tomonidan amalga oshirilishi va Internet tarmog'ida ochiq e'lon qilib borilishi belgilab o'tilgan.

2.Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash doirasida:

davlat tashkilotlari tomonidan ularga yuklangan har bir funktsiya korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash yuzasidan Agentlik va Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq tahlil qilib boriladi;

davlat tashkilotlari tomonidan o'ziga yuklangan funksiyalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari yuzasidan ma'lumotlar shakllantirilib, ochiq e'lon qilib boriladi;

e'lon qilingan ma'lumotlar yuzasidan fuqarolarning takliflarini onlayn rejimda qabul qilish imkonini yaratgan holda ijtimoiy so'rovlar va mustaqil ekspertlar ishtirokida muhokamalar o'tkaziladi;

har bir funktsiyaning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi "past", "o'rta" va "yuqori" o'lchovlarida "E-Anticor.uz" elektron platformasida baholab boriladi;

har bir funktsiya bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tavsifi va darajasi, ularni bartaraf etish bo'yicha choralarni o'z ichiga oluvchi korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida Reyestr yuritilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish tadbirlarini bajarish holati "E-Anticor.uz" elektron platformasida e'lon qilib boriladi.

3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

davlat tashkiloti faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni (yillik) baholash va korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini Reyestrda kiritish har yili 1-martga qadar amalga oshiriladi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash davlat tashkilotlari tarkibiy bo'linmalari rahbarlarini jalb qilgan holda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tomonidan

tashkil etiladi. Bunda, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mavjud bo'lmagan davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun ularning tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat ishchi guruhlar tashkil etilishi mumkin;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni mustaqil baholash maqsadida davlat tashkilotining faoliyati ushbu tashkilot bilan kelishilgan holda mustaqil tashkilot tomonidan tashqi baholashdan o'tkazilishi mumkin. Bunda, tegishli davlat tashkiloti faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qoniqarsiz amalga oshirilgan deb topilgan taqdirda, Agentlik ko'rsatmasiga asosan uning faoliyati tashqi baholashdan o'tkazilishi shart; davlat tashkilotlarining rahbarlari o'zlariga yuklangan funksiyalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni o'z vaqtida va sifatli o'tkazish uchun shaxsan javobgardir.

Yig'ilish davomida O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirining 31.08.2022 yil 3383-sonli qarori yuzasidan xam qisqacha tushuntirishlar berildi. Mazkur qaror Davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning xududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida ekanligi to'g'risida tushuntirishlar berildi. Shu bilan birga, boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilishlari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Kun tartibidagi masalalar va ular to'g'risidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish

## **Q A R O R   Q I L A D I:**

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2023-yil 11-martdagi "Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 54-son buyrug'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son Qarori va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirining 31.08.2022 yil 3383-sonli qarori rahbarlik va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari boshliqlariga:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son Qarori bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so'zsiz bajarilishi ta'minlansin hamda, Toshkent shahar statistika boshqarmasi va tuman statistika bo'limlarida 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so'zsiz bajarilishi ta'minlansin hamda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar kiritilsin;

- boshqarma va tuman statistika bo'limlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan "Odob-axloq qoidalari"ga

amal qilgan holda o'z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajarishlari yuzasidan mas'uliyatlarini yanada oshirsinlar.

- korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan bu borada belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar ijrosini to'liq ta'minlash yuzasidan barcha zarur choralarini ko'rgan holda, mansab vakolatlarini suiste'mol qilib, korrupsiya holatlariga yo'l qo'ygan rahbar va xodimlarga nisbatan qat'iy jazo choralarini ko'rilishi to'g'risida ogohlantirilsin;

- tadbirkorlik sub'ektlariga ularning huquqlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini tushuntirish bo'yicha ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda muntazam maqolalar chop etib borish, televideniye va radio vositalari hamda rasmiy saytlar orqali chiqishlar tashkil etish, bunda ayniqsa elektron shaklda hisobotlarni taqdim etish tizimining afzalliklari va qulayliklari to'g'risida keng ko'lamda yoritib borilishi ta'minlansin;

- boshqarma va tuman statistika bo'limlarida tadbirkorlik sub'ektlari bilan targ'ibot-tashviqot ishlarini keng qamrovda va tizimli asosda tashkil etilishini ta'minlab, bunda asosiy e'tiborni tadbirkorlik sub'ektlari uchun yaratilgan qulayliklar, ularning huquqlari va majburiyatlari, hisobot taqdim etish tartiblari va muddatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borilishiga, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishiga va ularning profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratsinlar hamda bu borada sustkashlikka yo'l qo'ygan rahbarlar va xodimlarga nisbatan qat'iy intizomiy jazo choralarini ko'rilishi yuzasidan ogohlantirilsin;

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda axborotdan foydalanuvchilarning so'rovlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida ko'rib chiqilishini, murojaatlarning tahlil etilishi va bu borada faoliyat natijalarini muhokama etib borilishini ta'minlab, ushbu masalalarga mas'ul rahbar va xodimlar faoliyati yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirsinlar;

- boshqarmaning rasmiy veb-saytining uzluksiz faoliyatini ta'minlash va takomillashtirib borish hamda ulardagi ma'lumotlarni muntazam yangilab va to'ldirib borilishini ta'minlash, shuningdek Davlat statistika organlari faoliyatini ochiqligini yoritib beruvchi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazish, shu bilan birga Statistika agentligi va boshqarma tomonidan berilgan topshiriqlarning tizim organlarida ijro etilishi holatini muntazam ravishda o'rganilsin;

3. Boshqarmaning bosh yuriskonsulti (M.Usmonov)ga:

Har chorak yakuni bo'yicha boshqarma va tuman statistika bo'limlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan qo'llanilgan ma'muriy jarimalarni O'zbekiston Respublikasi MJtK talablari asosida to'g'ri qo'llanilganligi yuzasidan o'z tavsiyalari berib borilsin.

4. Ushbu seminar qarorlari ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish kotibi



A.Mamatov